



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

**Urakov Sherzod Raxmonovich,
Madatov Ilhom Yusup o'g'li.**

*SamDU Kattaqo'rg'on filiali direktori, pedagogika fanlari doktori, dotsent,
SamDU Kattaqo'rg'on filiali boshqarma boshlig'i,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent*

OLIY TA'LIMDA TALABALAR MUSTAQIL ISHLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA KOMPETENSIYAGA YO'NALTIRILGAN TOPSHIRIQLARNING AMALIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida talabalar mustaqil ishlariga kompetensiyaviy yondashuv asosida yondashishning dolzarb jihatlari ko'rib chiqiladi. Kredit-modul tizimi doirasida mustaqil ta'lim soatlarining ko'paygani sharoitida talabalar oldiga qo'yilayotgan topshiriqlarni yanada samarali tashkil etish zarurati yuzaga kelmoqda. Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali talabalari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomalar natijasida mavjud muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish yo'llari taklif etilgan. Xususan, baholashning shaffofligi, psixologik qo'llab-quvvatlash, topshiriqlarning sifat darajasi va zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish bo'yicha takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: mustaqil ta'lim, baholash, kredit-modul tizimi, talabalar, topshiriqlar sifati, ta'lim samaradorligi.

ПРОБЛЕМЫ ПОВЫШЕНИЯ ПРАКТИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ РЕШЕНИЯ КОМПЕТЕНТНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННЫХ ЗАДАНИЙ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ СТУДЕНТОВ В ВЫСШЕМ УЧЕБНОМ ЗАВЕДЕНИИ

*Ураков Шерзод Рахмонович,
Директор Каттакорганского филиала СамГУ, доктор педагогических
наук, доцент
Мадатов Ильхом Юсуп углы,*

Заведующий кафедрой Каттакорганского филиала СамГУ, доктор философии педагогических наук, доцент

Аннотация: В статье рассматриваются актуальные аспекты повышения эффективности самостоятельной работы студентов на основе компетентностного подхода в условиях кредитно-модульной системы. Исследование, проведённое среди студентов Каттакурганского филиала Самаркандского государственного университета, выявило ключевые проблемы в организации и оценивании самостоятельных заданий. Предложены практические рекомендации по повышению прозрачности оценивания, улучшению качества заданий, а также внедрению современных образовательных технологий.

Ключевые слова: самостоятельное обучение, оценивание, кредитно-модульная система, студенты, качество заданий, эффективность обучения.

PROBLEMS OF INCREASING THE PRACTICAL EFFICIENCY OF COMPETENCE-ORIENTED TASKS IN IMPROVING STUDENTS' INDEPENDENT WORK IN HIGHER EDUCATION

*Urakov Sherzod Rakhmonovich, Director of the
Kattakorgan branch of SamSU, Doctor of Pedagogical
Sciences, Associate Professor*

*Madatov Ilhom Yusup o'g'li, Head of the
Department of the Kattakorgan branch of SamSU, Doctor
of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate
Professor*

Abstract: This article explores the challenges and opportunities of enhancing students' independent learning in higher education using a competency-based approach. As the credit-modular system increases the share of self-study hours, ensuring the effectiveness of assignments becomes crucial. Based on a survey conducted among students at the Kattakorgan branch of Samarkand State University, the article identifies current difficulties and suggests practical improvements—such as enhancing transparency in assessment, improving task quality, and integrating modern digital platforms.

Keywords: independent learning, assessment, credit-modular system, students, assignment quality, learning effectiveness.

KIRISH

Jahonda yuz berayotgan ilmiy-texnik taraqqiyot hamda sanoat va intellektual texnologiyalarning takomillashib borishi natijasida raqobatbardosh kadrlar masalasi ustuvor strategik vazifaga aylanmoqda. Hozirgi zamon mutaxassisining shiddatli raqobat dunyosida o'z o'rniga ega bo'lishi nafaqat uning o'zlashtirgan bilim darajasiga, balki o'z ustida muntazam ishlash ko'nikmalariga, mustaqil qaror qabul qilish salohiyatiga ham bog'liq. Shu bois ham uzoq muddat hukmronlik qilib kelgan "ta'lim – bir umrga" g'oyasi o'z ahamiyatini yo'qotib "ta'lim – butun umr davomida" g'oyasi kadrlar tayyorlashning muhim tamoyiliga aylanib bormoqda. Ayni mana shu zaruratdan kelib chiqib, mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida mustaqil fikrlovchi kadrlar tayyorlashga asosiy e'tibor qaratilmoqda.

Binobarin, "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida" kadrlar tayyorlashdagi mavjud muammolar qatorida "talabalarda tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko'nikmalari shakllantirilmagan"ligi alohida ta'kidlangan. Shundan kelib chiqib, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash strategik maqsad sifatida belgilab olindi. Talabalarni mustaqil va ijodiy faoliyatga yo'naltirish, ularni zarur bilim va ko'nikmalarni egallashga bo'lgan mas'uliyatini oshirish, oliy ta'limda belgilangan ma'lum bir meyorlarni qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Bu borada zarur qadamlar qo'yildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrda "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 824-son Qarori bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risidagi Nizom"da mustaqil ishlarga ajratiladigan soatlar miqdori oshirilib, uning ulushi bakalavriat ta'lim bosqichida umumiy o'quv yuklamasining 50-60 foiz, magistraturada esa 60-70 foizni tashkil etishi belgilab qo'yildi. Belgilangan mazkur tartib oliy ta'lim muassasalarida talabalar mustaqil ishini samarali tashkil etish va nazorat qilish mexanizmini tubdan takomillashtirishni taqozo etmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Oliy ta'limda mustaqil ta'lim topshiriqlari talabalarni faollashtirish, ularning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish hamda chuqur o'zlashtirishga yo'naltirishda muhim o'rin tutadi. Ilmiy adabiyotlarda ushbu masala ko'plab olimlar tomonidan turli nuqtai nazardan yoritilgan.

J. Biggs (2003) o'zining "Teaching for Quality Learning at University" asarida "**constructive alignment**" (konstruktiv muvofiqlik) tamoyilini ilgari surgan bo'lib, u o'quv maqsadlari, baholash va ta'lim metodikasi bir butun tizimda uyg'un bo'lishi

zarurligini ta'kidlaydi. Bu yondashuvda mustaqil topshiriqlar nafaqat bilimlarni tekshiruvchi vosita, balki o'rganishni chuqurlashtiruvchi mexanizm sifatida qaraladi[3].

D.Boud esa baholashning shakllantiruvchi (formative) funksiyasini o'rganib, talabalar o'zini baholash va o'rganish jarayoniga faol jalb etilishi lozimligini asoslaydi. Unga ko'ra, talaba mustaqil ta'lim topshiriqlari orqali o'z-o'zini baholash, refleksiya qilish va o'z-o'zini takomillashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi[4].

Mahalliy tadqiqotchilar ham bu borada muhim izlanishlar olib borgan. **Q.Yo'ldoshev va R. Toshpo'latovlar (2016)** tomonidan ishlab chiqilgan "Pedagogik texnologiyalar" nomli qo'llanmada ta'limda mustaqillikni ta'minlash uchun zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari yoritib berilgan. Ular mustaqil ishlar mazmunining aniqligi, ko'rsatmalarni tushunarli berilishi va ularni baholashda shaffoflik asosiy omillar sifatida qaralishini ta'kidlaydilar[2].

Paul Ramsden (2003) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quv jarayonida talabalarni faol ishtirok ettirish uchun baholash tizimi motivatsiyaga ijobiy ta'sir ko'rsatishi zarur. U talabalar fikrini hisobga olgan holda topshiriqlarni qayta tuzish ta'lim sifatini oshiradi, deb hisoblaydi [5].

Yuqorida keltirilgan ilmiy yondashuvlar asosida biz olib borgan so'rovnoma natijalari ham talabalarining mustaqil topshiriqlarga nisbatan qoniqish darajasi, ularning psixologik holati va topshiriqlar sifati o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatdi. Xususan, ko'plab talabalar topshiriqlarning murakkabligi, baholash mezonlarining noaniqligi hamda psixologik qo'llab-quvvatlov yetishmasligini bildirganlar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

So'rovnoma – talabalar orasida so'rovnomalar o'tkazish. Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali talabalari orasida mustaqil ta'lim topshiriqlari va u bilan bog'liq muammolarni aniqlashtirish bo'yicha so'rovnoma tashkil etildi.

Intervyu – Pedagoglar bilan chuqurlashtirilgan suhbatlar. Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali professor-o'qituvchilari bilan talabalar bajarayotgan mustaqil ishlar sifati va topshiriqlarni ishlab chiqish bo'yicha fikrlari olindi.

Hujjatlar tahlili – Mustaqil ish bo'yicha mavjud tartib-qoidalarni o'rganish. Oxirgi 10 yilda oliy o'quv yurti talabalariga mutaxassislik fanlaridan mustaqil ta'lim olish uchun ajratilgan soatlarni tahliliy o'rganib chiqish uchun tasdiqlangan o'quv rejalar tanlab olindi.

MA'LUMOTLARNI TO'PLASH VA TAHLIL QILISH

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari

to'g'risida"gi 824-son Qarori bilan bog'liq bo'lib oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimiga to'liq o'tilishining natijasidir. Mustaqil ishlarga ajratiladigan soatlar miqdori oshirilib, uning ulushi bakalavriatda umumiy o'quv yuklamasining 50-60 foiz etib belgilab qo'yildi. Belgilangan mazkur tartib oliy ta'lim muassasalarida talabalar mustaqil ishini samarali tashkil etish va nazorat qilish mexanizmini qayta ko'rib chiqishni kun tartibiga qo'ymoqda. Shu maqsadda biz Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali talabalari orasida onlayn so'rovnoma o'tkazildi. Quyida ushbu so'rovnoma natijalarini tahlil qilamiz.

So'rovnomada 1161 nafar talaba ishtirok etgan bo'lib ularga 10 ta savolga javob berishi so'ralgan.

Birinchi va ikkinchi savollar orqali ishtirokchilarning fakulteti va ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kontingenti aniqlandi. (rasmga qarang)

№	Fakultet nomi	Talabalar soni	Ulushi (%)
1	Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti	675	58.1 %
	Boshlang'ich ta'lim	189	16.2 %
	Xorijiy til va adabiyoti	181	15.5 %
	Maktabgacha ta'lim	78	6.7 %
	O'zbek tili va adabiyoti	71	6.1 %
	O'zga tilli guruhlarda rus tili	36	3.1 %
	Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)	39	3.4 %
	Ona tili va adabiyoti: rus tili	11	0.9 %
	Musiqqa	11	1.0 %
	Texnologik ta'lim	15	1.3 %
	Psixologiya	14	1.4 %
	Pedagogika	30	2.6 %
2	Aniq va tabiiy fanlar fakulteti	486	41.9 %
	Biologiya	98	8.4 %
	Matematika	95	8.2 %
	Kimyo	80	6.9 %
	Matematika (takroran)	46	4.0 %
	Iqtisodiyot	44	3.8 %
	Bank ishi	38	3.3 %
	Ijtimoiy ish	22	1.9 %
	Biznesni boshqarish	7	0.6 %
	Axborot tizimlari	14	1.4 %
	Buxgalteriya	42	3.6 %

	Jami	1161	100 %
--	-------------	-------------	--------------

Demak, Tadqiqotning asosiy tayanish bazasi pedagogik fakultet talabalari bo'lgani uchun umumlashtirishda bu nisbatni inobatga olish kerak. Talabalar ta'lim yo'nalishlarining xilma-xilligi mustaqil topshiriqlarga bo'lgan munosabatda farqlar mavjud bo'lishiga olib keladi. Ayniqsa, pedagogik va gumanitar yo'nalishlarda talabalarning mustaqil ishlarga bo'lgan tayyorligi yuqori bo'lishi kutiladi. Shunga ko'ra, har bir yo'nalish xususiyatini hisobga olgan holda topshiriq mazmunini differensiallashtirish zarur.

Uchinchi savol **“Siz qaysi kursda tahsil olasiz?”** deya berilgan savolga ishtirokchilarning 34.1 % yani 397 nafari 1-kurs, 29 % yani 337 nafari 2- kurs, 26.3 % yani 306 nafari 3-kurs, 10.7 % yani 124 nafari 4-kurs ekanliklarini bildirishgan. Demak, Ko'pchilik 1-2 kurs talabalari bo'lib, ular hali mustaqil ishlarga to'liq moslashmagan. 4-kurs talabalari kamroq ishtirok etgan. Mustaqil ta'limga munosabat va qiyinchiliklar ko'proq boshlang'ich bosqichda o'qiyotganlar fikriga asoslangan. Bu natijalarni bosqichlar bo'yicha ham solishtirish maqsadga muvofiq.

To'rtinchi savol **“Mustaqil ta'lim topshiriqlariga bo'lgan umumiy munosabatingiz qanday?”** degan savolga 21.5 % (250 nafar) talaba “Juda foydali”, 37.6 % (438 nafar) talaba “Foydali”, 29.8 % (347 nafar) talaba “O'rtacha foydali”, 6.3 % (73 nafar) “Umuman keraksiz”, 4.8 % (56 nafar) talaba “Foydali emas” deb hisoblaydi. 59.1% ijobiy fikr bildirgan. Salbiy munosabatda bo'lganlar (11.1%) – bu e'tibor berish lozim bo'lgan ko'rsatkich. Demak talabalar mustaqil ta'limni foydali deb hisoblaydi, ammo topshiriqlar sifati va ularni tushunishdagi muammolar ba'zilar uchun qiyinchilik tug'dirmoqda.

Beshinchi savol **“Quyidagi mustaqil ta'lim topshiriqlaridan qaysilari siz uchun eng foydali? (Bir nechtasini tanlash mumkin)”** deya berilgan savolga ishtirokchilarning 42,5 % (495 nafar) prezentatsiya tayyorlash, 35 % (407 nafar) mustaqil referat yozish, 32,2 % (363 nafar) amaliy topshiriqlar, 26,3 % (306 nafar) Onlayn platformalarda ishlash (testlar, forumlar), 10,5 % (122 nafar) Loyiha va tadqiqot ishlari deb javob bergan bo'lsa o'zingiz yozing qismida bir qancha javoblar uchraydi masalan: og'zaki savol-javob, hech biri, google classroom va h.k.

Tahlilga ko'ra talabalarning katta qismi vizual va amaliy topshiriqlar ko'proq foydali deb topilgan. Loyiha-tadqiqot ishlari esa kamroq talabalar tomonidan tanlangan, bu esa Loyiha va tadqiqotga yo'naltirilgan ta'lim topshiriqlari va ularning natijadorligi to'g'risida kam tasavvurga ega ekanligidan dalolat beradi. Talabalar ko'proq amaliy, aniq natija beruvchi topshiriqlarga qiziqish bildirmoqda. Ta'limda shu tendensiyaning kuchaytirish kerak.

2-rasm. Quyidagi jihatlar bo'yicha mustaqil ta'limdan qoniqishingizni baholang



Oltinchi savol “**Hozirgi mustaqil ta'lim topshiriqlaridan qanchalik qoniqasiz?**(1 – *umuman qoniqmayman*, 2–*qoniqmayman*,3–*o'rtacha*,4–*qoniqaman*, 5 – *juda qoniqaman*)”

Demak, 1/8 talabalar topshiriqlardan qoniqmaydi, bu salmoqli ko'rsatkich. 3 baho ko'rsatganlar ham e'tiborga loyiq. **Xulosa:** Umuman ijobiy fikr ustun bo'lsa-da, topshiriqlar sifati va moslashtirilganligi ustida ishlash kerak.

Yettinchi savol “**Quyidagi jihatlar bo'yicha mustaqil ta'limdan qoniqishingizni baholang** (1 – *umuman qoniqmayman*, 2–*qoniqmayman*,3–*o'rtacha*, 4 – *qoniqaman*,5 – *juda qoniqaman*)”

Tahlil: Eng muhim muammo — **baholash tizimi adolatliligi**. **Xulosa:** Shaffof va aniq mezonlarga asoslangan baholash tizimini joriy qilish dolzarb. (Natijalar bilan 2-rasmdagi diagrammada tanishish mumkin)

Sakkizinchi savol “**Mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda qiyinchiliklar yuzaga keladimi?**” deya berilgan savolga 73,7 % yani 858 nafar talaba ha bazan qiyinchiliklar bo'ladi, 17,9 % yani 208 nafar ha ko'p qiyinchiliklar bor, 8.4 % yani 98 nafari yo'q umuman qiyinchiliklar bo'lmaydi deb javob berishgan. Demak,

91.6% talabalar qiyinchilik mavjudligini bildirgan. Bu kuchli ogohlantirish signali. **Xulosa:** Muammolarni tizimli ravishda aniqlab, ularni kamaytirish uchun metodik ko'rsatmalar ishlab chiqilishi lozim.

To'qqizinchi savol "**Mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda eng katta muammo nima deb o'ylaysiz?**" deya berilgan savolga 59 % yani 687 nafar vaqt yetishmovchiligi, 25, 9 % yani 302 nafari kerakli materiallarning yetishmovchiligi, 16,8 % yani 196 nafari topshiriqlarning tushunarsizligi, 12,2 % yani 142 nafari oliygoh tomonidan qo'llab-quvvatlashning yo'qligi deb javob bergan bo'lsa o'zingiz yozing qismida bir nechta javob variantlari takrorlanib kelgan masalan: mavzular ko'p, muammo yo'q, oilaviy sharoit, talabalarning o'zida va h.k.

Tahlil: Talabalar o'quv yuklamasi og'irligi va resurs yetishmasligini asosiy muammo deb ko'rsatmoqda. **Xulosa:** Ta'lim yuklamasini qayta muvozanatlash, topshiriqlarga aniq metodik ko'rsatmalar va kerakli resurslar bilan ta'minlash zarur.

Oxirgi o'ninchi savol "**Mustaqil ta'lim tizimi yaxshilash uchun qanday takliflaringiz bor?**" deya berilgan savolga quyidagicha javoblar nisbatan ko'p miqdorda berilgan: Hammasi yaxshi, Mustaqil ta'lim sonini kamaytirish, Kamroq va sifatli olish, Loyiha ishlarini qo'llash, Imkoni boricha topshiriqlar bajarilishi, Mustaqil ta'limlarni soniga emas, sifatiga e'tibor qaratish kerak, Onlayn platforma yanada samaraliroq va o'qituvchi va o'quvchilarga qulayroq bo'lardi, Amaliyotga bog'lash, Fikrim bo'yicha, asosan songa e'tibor qaratilmoqda, sifat esa ikkinchi darajali bo'lmoqda, O'ylashimcha nazariy ko'nikmalarimiz yetarli ya'ni darsda o'qib, o'qituvchilarga aytib baholanishning o'zi kifoya. Mustaqil ta'limlarning sonini kamaytirib, shu asosida maqola yoki ilmiy tadqiqotlar qilish ko'nikmasini talabada shakllantirish lozim. Deylik u 6 oyda bitta maqola yoki ilmiy ish qilar, ammo, sekin asta shu ko'nikma shakllanadi. Bu uning keyingi faoliyati uchun ham manfaatli bo'ladi deb o'ylayman. Qolaversa o'qituvchilarimizdan maslahatlar olib o'z ustida ko'proq ishlash imkoniyati ham mavjud bo'ladi, Baholash tizimini shaffof qilish kerak deb o'ylayman, kabi javob variantlari mavjud.

Demak Takliflar asosiy guruhlariga bo'lingan:

- Sifatga e'tibor qaratish
- Sonini kamaytirish
- Ilmiy maqola, tadqiqotga yo'naltirish
- Onlayn platformalarni kengaytirish
- O'qituvchi maslahatlarini kuchaytirish

Tahlil: Talabalar son emas, sifatli va amaliyotga yo'naltirilgan topshiriqlarni xohlashmoqda. **Xulosa:** Bu takliflar mustaqil ta'limni sifat jihatidan tubdan qayta ko'rib chiqishga asos bo'la oladi.

UMUMIY XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan so‘rovnoma va tahlillar natijasida quyidagi muhim xulosalarga kelindi:

Talabalar mustaqil ta’lim topshiriqlarining umumiy foydasini tan olmoqdalar, ularning qariyb 60% bu topshiriqlarni foydali yoki juda foydali deb hisoblaydi. Bu oliy ta’limda mustaqil ta’lim tamoyillarini qo‘llashning samarali ekanligini bildiradi.

Topshiriqlarning shakli va mazmuni bo‘yicha talabalar prezentatsiya tayyorlash, referat yozish va amaliy topshiriqlarni eng foydali deb bilishmoqda. Bu o‘quv faoliyatini ko‘proq amaliy va vizual usullar bilan boyitish zarurligini ko‘rsatadi.

Mustaqil ta’limga oid muammolar mavjud bo‘lib, eng asosiylari: vaqt yetishmovchiligi, materiallarning yetarli emasligi, topshiriqlar mazmunining tushunarsizligi va pedagoglar tomonidan yetarlicha yo‘naltirishning bo‘lmasligi sifatida qayd etilgan.

Baholash tizimi talabalar e’tiroziga sabab bo‘lmoqda, chunki u adolatli va shaffof emas deb topilmoqda. So‘rov natijalarida baholashga nisbatan ishonch darajasi eng past ko‘rsatkichlardan birini tashkil etdi.

Talabalar o‘z takliflarida **sifatli, kamroq, ammo mazmunli topshiriqlar, ilmiy-tadqiqotga asoslangan yondashuv**, o‘qituvchilar bilan maslahatlashuv, onlayn platformalardan foydalanish kabi zamonaviy takliflarni ilgari surganlar.

Takliflar:

1. **Mustaqil ta’lim topshiriqlari sifatini oshirish** maqsadida ularni ta’lim yo‘nalishiga, kurs darajasiga va talaba ehtiyojlariga mos ravishda **differentiallashtirish** lozim.
2. **Baholash mezonlarini shaffof va aniq qilib belgilash**, talabaga oldindan tanishtirish orqali adolatli muhit yaratish zarur.
3. **Vaqtini tejaydigan, amaliyotga yo‘naltirilgan topshiriqlarni afzal ko‘rish**, masalan: loyiha ishlari, tajriba asosidagi topshiriqlar, real hayot bilan bog‘liq topshiriqlar.
4. **Onlayn ta’lim platformalari (Google Classroom, Moodle, Testportallar)** bilan integratsiyalashgan topshiriqlarni kengaytirish — bu talaba mustaqilligini oshiradi va monitoringni osonlashtiradi.
5. **O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanmalar va seminarlar tashkil etish** orqali mustaqil ishni samarali tashkil etish usullarini ularga yetkazish.
6. **Ilmiy-tadqiqotga yo‘naltirilgan topshiriqlarni bosqichma-bosqich kiritish**: masalan, har semestrda bitta mustaqil maqola yoki mini-tadqiqot ishi tayyorlash ko‘nikmasini rivojlantirish.

7. Talabalarni psixologik va akademik qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, ayniqsa birinchi bosqichda o'qiyotganlar uchun mentorlik tizimini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrda 824-son qarori "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" //
2. Yo'ldoshev Q., Toshpo'latov R. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, 2016. – 196 b.
3. Biggs J. Teaching for Quality Learning at University. 2nd ed. – Buckingham: Open University Press, 2003. – 338 p.
4. Boud D. Assessment for Learning at Work. – Routledge, 1995. – 214 p.
5. Ramsden P. Learning to Teach in Higher Education. – London: RoutledgeFalmer, 2003. – 288 p.
6. Yusup o'g'li M. I. Inklyuziv ta'lim //Darslik. Toshkent-"Best-Publish"-2024.[14].